

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил 6-сон



5. The Longman Dictionary of Contemporary English (LDOCE). New edition. For advanced learners.

**YETUK O'ZBEK ADIBI ISAJON SULTONNING "BOQIY DARBADAR" ASARI
MISOLIDA TARIXIY INVERSIYA**

Naimova Aziza Muxammadovna
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz tarixiy inversiyaning mazmun mohiyatini tushunib yetishga, uning o'ziga xos tur yo'nalishlariga to'xtalib o'tdik. Shuningdek, xronotopning o'tmish hamda kelajak tasvirlari bir-biridan o'ta farqlanishiga guvoh bo'ldik. Xronotopning zamon va makon fazalari har bir misollar yordamida analiz qilindi.

Kalit so'zlar: tarixiy inversiya, xronotop, kelajak, o'tmish, gen, eftanasiya.

**ИСТОРИЧЕСКАЯ ИНВЕРСИЯ НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ВЕЛИКОГО
УЗБЕКСКОГО ПИСАТЕЛЯ ИСАДЖОНА СУЛТАНА «ВЕЧНЫЙ СТРАННИК»**

Наимова Азиза Мухаммадовна
Бухарский государственный университет –преподаватель

Аннотация: В этой статье мы сосредоточились на понимании содержания исторической инверсии, ее конкретных типов направлений. Мы также были свидетелями очень разных изображений хронотопа из прошлого и будущего. Временная и пространственная фазы хронотопа были проанализированы с использованием каждого образца.

Ключевые слова: историческая инверсия, хронотоп, будущее, прошлое, ген, эвтаназия.

**HISTORICAL INVERSION ON THE EXAMPLE OF THE GREAT UZBEK WRITER ISAJON
SULTAN'S WORK " BOQIY DARBADAR "**

Naimova Aziza Muxammadovna
Bukhara State University teacher.

Annotation: In this article we have focused on understanding the essence of the content of historical inversion, its specific types of directions. We have also witnessed very different images of the chronotope from the past and the future. The time and space phases of the chronotope were analyzed using each sample.

Key words: historical inversion, chronotope, future, past, gene, euthanasia.

Kirish. Biz bilamizki, adabiyot juda katta ummondir uning tur xilma-xilliklari, o'ziga xos jozibasi, ko'rinish fazilatlarini insonni o'ziga rom etadi. Uni o'zgacha bir olamda, ko'z ko'rib quloq eshitmagan tushuncha va tasavvurlarni, insoniyat uchun hali yangi olimlar tomonidan mutlaqo aniqlanmagan turli xilqatlarni tushunib, his qilishiga yordam beradigan vosita bu adabiyotdir. U shu qadar kuchliki, unda kitobxon yer kurrasidan bo'lak o'zga olam va sayyoralarni, inson miyasi hali anglay olmaydigan yangi tadqiqot va texnikalarni, ilm-fan taraqqiyotini, inson bolasiga o'xshamas butunlay o'zgacha ko'rinish va miyasi bir necha barobar kuchli ishlaydigan va ularning tabiatiga xos o'zga xilliklari mavjud bo'lgan yaratilarni



his qilib, tushuncha hosil qiladi. Yozuvchi ma'lum bir adabiy asar yaratar ekan unga ta'sirchanlik va sermazmunlik bo'yoqlarini qo'shadiki kitobxon uni o'qib his etsin, o'zini aynan shu mamlakatdagi bir piyodadek bilsin. Bu ranglarning jilosi uni bir necha yillar oldingi o'tmishga qaytarib ma'lum bir chigalliklar, muammolarning yechimiga ayni guvohi bo'lsa yana bir holatda, o'quvchi o'zini bir necha yuz yillar oldingi kelajakda tasavvur qilib olimlarning tadqiqotlaridan boxabar bo'lishga muyassar bo'ladilar. Bu kabi o'tmish va kelajak haqidagi sayohatlar tarixiy inversiyaning ayni xususiyatlaridan biri bo'lib, uning o'ziga xosligi ham shunda. Bir necha tadqiqotchi olimlarning bergan fikrlariga yondashadigan bo'lsak, inversiyaning asosi xronotopdan iboratdir. Ya'ni, xronotop so'zi yunoncha, xronos-vaqt, topos esa joy degan ma'noni bildirib, fanda psixologiyaga juda yaqin turuvchi termin hisoblanadi. Ushbu atamani dastavval o'z kasbining mahoratli psixologi bo'lmish professor Uxtomskiy fiziologik laboratoriya izlanishlari orqali fanda birinchi marta ishlatdi. Ushbu termin XX asrda ko'plab adabiy ijodkorlar, olimlar va tadqiqotchilar tomonidan qo'llanilishni boshlangan bo'lib, uning tub ishlatilishi fazoviy va vaqt birliklarining o'zaro bir-biriga chambarchas bog'liqligi hamda mushtarakligidadir. Adabiyotda bu termini dastlab rus olimi M.M. Baxtin kiritgan bo'lib, xronotopdagi zamon va makon birliklarini bir adabiy asar ichida ko'rsatib, adabiy tanqidga turli janrlardagi san'at asarlarida, turli xil tarixiy davrlarda, turli mualliflarda vaqt va fazoviy aloqalarni tavsiflashning o'ziga xos usullarini belgilash uchun kiradi deb aytadi. Uning fikricha adabiyotda xronotop juda muhim janrga ega, shuning uchun janr va janr navlari xronotop tomonidan aniqlanadi va xronotopdagi yetakchi tamoyil - vaqt.¹⁹

Asosiy qism. Aslida bu an'ana qadim antik davrda boshlangan bo'lib, bu janrda chuqur bilimga ega daholardan Aristotel, Leybnis uni zamon va makonni tushunish o'zaro qarama-qarshi tushunchalardir deb fikr beradi shuningdek, Hegel esa bu kabi toifalarni bir-biri bilan bog'liq deb aytadi ya'ni to'rt o'lchovli doimiy kontekstning o'zaro bog'liq koordinatalari deb hisoblanadi.²⁰ Yana bir g'oya Vernatskiy tomonidan ilgari surilgan bo'lib, uning tadqiqotlariga tayanadigan bo'lsak nosferaning ayni shakli bu hayotning ruhiy o'lchovi bilan bog'liq bo'lgan bir yagona vaqt va makon bilan izohlab o'tadi. Psixologiyadan tubdan farq qiluvchi ushbu ikki termin idrokda ya'ni anglash fazasida bo'yash hamda bo'yanish kabi ikki tushunchadan iborat bo'lib, ularning o'ziga xos ma'no xususiyatlari mavjuddir. Xuddi shu yerda M. Baxtinning misolini eslatib, bu tushunchalar doirasida ham moddiy, ham ma'naviy voqelikni tushunish mumkin ammo uning markazida inson turadi. Ya'ni ma'lum bir asarning mag'zini chaqish uchun bizga vaqt va makon yordam beradi. Bunday holda, bo'shliq va vaqt mavhum deb hisoblanadi, ular orqali yagona makon, yagona va buyurtma qilingan Olamning rasmini yaratish mumkin. Bu esa faqatgina yozuvchining xohish istagidagi joy hamda vaqtga bog'liq bo'lib, harakatning rivojlanishi va personajlarning xulq-atvorini belgilab beradi. Ushbu xayoliy vaqt va makon esa hech bir boshqa yozuvchining san'at asaridagi mavhum xronotopga o'xshamaydi, yoyinki haqiqiy realiyadagi vaqt va makon ham unga mos kelmaydi. Umumiy qilib aytganda, adabiyot durdonasidagi xronotop bu fazoviy hamda vaqtli munosabatlarning o'zaro o'xshashligidadir. Demak, yozuvchi kitobxonni o'zi xayolan yaratgan dunyo bilan tanishtirib, o'zaro o'quvchi ongi hamda yangi olam o'rtasida assotsiativ aloqani shakllantiradi.

¹⁹ Baxtin M.M. Adabiyot va estetika. - M.: Badiiy adabiyot, 1975. Ilgiz A. Xasanov

²⁰ gigafox.ru



Bir necha asrlardan so'ng tadqiqotchilar ichida tarixiy inversiyaning xos xususiyatlari haqida bir qancha munozaralar kelib chiqdi. Bu bahs ortida olimlar fazo va vaqt kategoriyasining o'zaro birligi yoki bir-biriga qarama-qarshiligi borasida bir necha bora tortishuvlar qildilar va bu bahs-munozaralar o'zining rivojini ko'rsatib, ikki komponent tarixiy janr xususiyatlarining ajralmas birligi sifatida namoyon bo'ldi. Maqolamizning asosiy obyekti sifatida tanlab olingan Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarida janrning xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin. Muallif ushbu ishida kitobxonni o'zgacha bir holatga tushishiga majbur qilib, ko'z ko'rib quloq eshitmagan g'ayrinoodatiy ko'rinishdagi inson bolasining ixtiroi bilan butun jamiyatning o'zgacha jilosini namoyon qila oldi.

Dastlab fikrimizning dalili sifatida sahro qurtini misol tariqasida ko'rishimiz mumkin: *u o'zidan juda kuchli elektr quvvati chiqarib, yon-veridagi har qanday jonzotni ko'mirga aylantiradigan ulkan to'mtoq sahro qurti – olg'oy-xorxoy haqidagi xabarlar keldi Professorning xayoliga. Olg'oy-xorxoy faqat Gobida yashaydi. Tana tuzilishini shaffof holga keltiraoladi, goh ko'rinib-goh ko'rinmasligining sababi shunda...*²¹

Yuqoridagi dastlabki tadqiqot bu jonzot ya'ni qurtning ma'lum turi bo'lib, u o'ziga xos xususiyatga ega aniqrog'i uning elektr quvvatini tanasidan chiqarishi va bu unga shaffoflikni ato etgani xudoning bir mo'jizasi desak xato qilmagan bo'lar edik. Ushbu misoldagi tadqiqot bizning zamonimizdan bir necha yillardan so'ng paydo bo'ladigan bir qurt turidir balkim, ayni holatda inson tomonidan yaratilgan bu jonzot tanasining ko'rinmas holatiga kelishi uning yangiligi hisoblanib, u o'zidan qandaydir olov chiqaradi. Bir ko'rganda ba'zi xususiyatlari bir necha arslar oldin yashab o'tgan dinazavrlarga o'xshab ketadi ya'ni umumiy olov chiqarish texnikasi bir xil ammo ushbu qurtning o'z atrofidagi barcha narsani va jonzotlarni yondirib ko'mirga aylantirishi hamda tanasining shaffof holatga kelishi uning xos yangiligidir. Demak vaqt jihatdan bizning zamonamizga urf bo'lmagan bu jonivor, aynan Gobi cho'lida mavjudligi yozuvchining xronotopik kreativligidan dalolat.

Monitorda shisha xona ichida ko'zlari katta-katta bir odam ko'rindi. U tevarakka olazarak alanglar, nimadandir juda bezovta edi.

*– Bu – olti yuz oltmishinchi raqamli odam, – qorong'ilik ichidan ovozi keldi olimning. – To'rtinchi halqa DNA o'ramlariga o'tkazilgan ta'sirlar natijasida u nurlanishlarga chidamli bo'lib dunyoga keldi. Bu genomning nuqsoni – u ko'r. Chunki oddiy sharoitda yashay olmaydi, quyosh nurlari vujudiga halokatli ta'sir ko'rsatadi.*²²

Bu misolda muallif yanagi safardagi ixtiro bilan bizni hayron qoldirdi. Aniqrog'i bu ixtiro odam bolasi ekanligi kishini hayratga soladi: olimlar to'rtinchi halqa DNA o'ramlari ta'siri sabab bu inson ko'rinishidagi mavjudotni yaratishdi. Bu ixtiroga katta qiziqish uyg'otayotgan olimlar uning nurlanishga chidamliligida deb ko'rsatdi adib, ammo uning ko'zlari ko'raolmaydi va u quyoshning kuchli nurlariga chidamsizligi uning minus tomoni desak adashmaymiz. Umumiy qilib aytganda bu kabi mavjudotlar ham zamon, ham makon jihatidan bizning ayni zamonamizga to'g'ri kelmasligi tarixiy inversiyaning mahoratli ko'rinishda tasvirlangani bo'lib, u o'zgacha bir olamlarda yashash uchun mo'ljallangan inson

²¹ Isajon Sulton. Boqiy darbadar. «Sharq yulduzi» jurnali. 2010-yil, 6-son

²² Isajon Sulton. Boqiy darbadar. «Sharq yulduzi» jurnali. 2010-yil, 6-son



bolasining ixtiroosi desak adashmaymiz. Bu ixtironing g'ayrioddiyligi uning tanasi nurlanishga bardosh bera olishidir, yoyinki nurlanishning insonga nisbatan ta'siri juda xavflidir. Bunga misol bir necha yil ilgari AQShning o'z atom bombalarini Yaponiyaning Xerosima va Nagasaki shaharlariga tashlashi oqibatida bir necha begunoh insonlar va ularning kelajak avlodlari bir qancha tuzalmas, og'ir kasalliklarga chalinishiga tarix guvoh. Bu kabi kasalliklarning sababi aynan atom bombalari oqibatidagi nurlanish bo'lib, Yaponiya xalqining yetti avlodi undan aziyat chekdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu anjumanda ishtirok etgan har bir tadqiqotchi olimlar o'zlari yaratgan ixtirolarni qaysidir kimsalarning kelajakdagi turli maqsad-g'oyalari sabab yaratar, agarda o'zi kutilgan natija bermasa xuddi shu tariqa eftasiya yo'li bilan yo'qotishar edi. Ushbu shisha xona ichidagi buyum sifatida qaralayotgan chala bir jonzo ham turli nurlanishlar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarda o'ta muhim vazifalarni bajarish uchun yaratilgan edi go'yo, ammo tanganing orqa tomoni bo'lgani kabi bu ixtiro nurlanishdek kuchi ta'sirga bardosh bera olsada, tangri taoloning ulug' ne'matlaridan biri bo'lgan quyosh nurlariga also bardoshsiz edi. Bu ham bir tabiatning mo'jizasidek, yoki ollohning yagonaligini ko'rsatib turuvchi bir hodisa kabi muvafaqyatsizligi namoyon bo'ldi.

– Mazkur jonzo favqulodda qobiliyatlarga ega holda dunyoga kelishi ko'zlangan edi. Darhaqiqat, uning suyaklari g'oyat egiluvchan, lekin vujudi bunday egiluvchanlik uchun lozim bo'lgan katta miqdordagi ma'danlarni yetkazib berolmagani uchun halokatga mahkum.²³

Demak, navbatdagi ixtiro o'zgacha xil xususiyatlarga egaligi ya'ni suyaklarining egiluvchanligi bilan ajralib turuvchi inson qiyofasidagi o'zga olamga mansub bo'lgan mavjudotdir. Bu kabi ixtirolarning ismlari bir necha sonlar uyushmasidan iborat bo'lgan raqamlar birlashmasi orqali atalib, ularga xos bo'lgan fazilatlar yer kurasi mos emas. Bu esa maqolamizdagi xronotopning juda kuchli tasvirlar orqali yozuvchining o'tkir qalam sohibi ekanligidan dalolat. Ya'ni bizning sayyoramizda hech bir inson tana a'zolari o'ta egiluvchan xususiyatga ega emas.

Bu favqulotdagi talantni xronotopning vaqt birligi misolida qarasak, bu mavjudot XXI asrga xos bo'lmagan, ya'ni balkim bir necha asr yuz yilliklardan so'ng o'zining talaygina oshna-og'aynilariga, urug'-aymoqlariga ega bo'lar. Qo'shimcha qilib aytganda, bu kabi favqulotdagi qobiliyat egalari bizning zamonaga xos emas, ya'ni bu davrda bu kabi mavjudotlar yashab o'zidan nasl qoldiradigan asrdan ancha oldingi davr tasavvur qilinmoqda. Bu ham insoniyatning juda kuchli tasavvur egasi ekanligini ko'rsatadi va tarixiy inversiyaning kelajak tasviriga misol bo'la oladi.

Endi e'tiborni xronotopning makon qismiga bersak, ushbu jonzo tning suyak a'zolari o'ta egiluvchanligiga yuqori darajadagi ma'danlar tanasi tomonidan ajratib berishi lozim. Ammo unda bu kabi madanlarni ishlab chiqaruvchilik xususiyati mavjud emas. Demak, bu madanlarni yetqazib berolmaslikning sabablariga kelsak uni olimlar ham aniqlay olishmagan va bu shuni ko'rsatadiki, yana xronotopdagi makon mos kelmagan. Balkim shu mavjudotning yashab rivojlanishiga, tanasining kerakli tempgacha bo'lgan madanlarni ishlab chiqarishi uchun mos bo'lgan o'zga sayyora, undagi biovitamin, havo, suv va boshqa shu kabi vositalar sababchidir.

²³ Isajon Sulton. Boqiy darbadar. «Sharq yulduzi» jurnali. 2010-yil, 6-son



Umumiy qilib aytganda, bizning sayyoramizdagi muhit bu mavjudotga xos emas va bu makon obyektining ayni holatga butkul farqlanishidan dalolat beradi.

–Mana bunisi esa barhayot jonzot, – deb davom etdi olim. – Avstraliya toshbaqasining genlari bilan chatishtirish orqali dunyoga kelgan bu odam juda uzoq yashaydi. Afsuski, teskari qonuniyatlar yana pand berdi – harchand uzoq yashasa-da, unda aql nishonasi yo‘q.²⁴

Yana navbatdagi yangi bir-biriga o‘xshamas kashfiyotlar bu galgisi hammasidan ham o‘zgacha va har bir olimning dilidagi katta orzusi ya‘ni umrboqiy insonni yaratish kabi yetuk maqsadga erishgan olimlardan biri o‘zi dunyoga keltirgan mavjudotni tasvirlar ekan uning o‘ziga xos favqulotdagi xislatlari yo‘qligi ammo lekin bu inson ko‘rinishidagi jonzotning umrboqiy ya‘ni juda uzoq yashashini ta‘rifladi. Uning bu darajada umr ko‘rishiga sabab Avstraliya toshbaqasining genlari bilan chatishtirilganligi bo‘lib, bu toshbaqalar juda uzoq yashashadi va shu o‘ziga xoslik ushbu mavjudotga ham meros bo‘lgani aytib eshittiriladi. Ammo har qancha urinmasin ollohning mo‘jizalari oldida bu olimlarning kashfiyotlari teng kela olmasligi yana bir bora ta‘kidlandi, ya‘ni bu noyob jonzot har qancha uzoq yashasada ammo unda fikrlash qobiliyati mavjud emas. Unda ko‘rinish insonga xos bo‘lsada, aql-u idrokda hayvon yoki genlari chatishtirilgan toshbaqa misol edi.

Demak bu kashfiyotning xarakter xususiyatlarini ko‘rib o‘tdik endi bu kabi jonzotlarning zamon va makon jihatidan bizning yer kurramizda hamda ayni davrga mos yoki mos emasligiga e‘tiborni qaratamiz. Dastlab, vaqt jihatidan qaraydigan bo‘lsak, bu kabi mavjudotlarni yaratishda ko‘plab qiyinchiliklar mavjud. Bu kabi o‘ta qiyin laboratoriya mashg‘ulotlari uchun turli xildagi juda murakkab anjom va uskunalarining bo‘lishi, bir qancha prodsedural operatsiyalarning muvaffaqiyatli o‘tishi lozim. Bu o‘rinda adib juda chiroyli va o‘tkir nigoh bilan shu kabi kelajak kashfiyotlarini ko‘ra oldi va uni shu darajada haqiqatga yaqin holatda kitobxonga ko‘rsatib bera oldi. Bu holatda biz ilmiy fantastika janrining eng yorqin va ta‘sirli nuqtasini ko‘ra olyapmiz. Xtonotopning vaqt shkalasi bilan o‘lchasak bu kabi ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan kashfiyotlar bir necha asrdan keyin sodir bo‘lishi lozim bo‘lgan holat deb baho berdik. Inversiyaning makon kategoriyasi ham ayni holatning bu hududda sodir bo‘lishi xronotopik mos kelmaslikka olib keladi.

Xulosa. Biz ushbu maqolamizda tarixiy inversiyaning mazmun mohiyatini tushunib yetishga, uning o‘ziga xos tur yo‘nalishlariga to‘xtalib o‘tdik. Shuningdek, xronotopning o‘tmish hamda kelajak tasvirlari bir-biridan o‘ta farqlanishiga guvoh bo‘ldik. Ayni ilmiy ishimizni Isajon Sultonning ma‘lun bir asarlari doirasida o‘rganishga urindik va uning ijod mahsullari orasida ko‘plab mavzuimiz obyektiga doir misollar topib tahlil ostiga oldik. Aksariyat misollar xronotopning kelajak tasvirlariga oid bo‘lib, yozuvchi ularni juda kuchli yolg‘on- haqiqat ostida ko‘rsatishga uringan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azarenko S. A. Ijtimoiy xronotop va zamonaviy ijtimoiy fan metodologiyasi // Jamiyatlar № 13 - 2007
2. Baxtin M.M. Adabiyot va estetika. - M.: Badiiy adabiyot, 1975. Ilgiz A. Xasanov.

²⁴Isajon Sulton. Boqiy darbadar.«Sharq yulduzi» jurnali. 2010-yil, 6-son



10.00.00

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

48	Ошибки в письменной работе студентов	
	Хамдам-зода Л	251
49	Sinxron tarjima san'atini egallash strategiyalari	
	Abdullayeva G. G	257
50	Индивидуальные вариации в овладении вторым языком	
	Бобокулова Г.Ш	263
51	Эртак ва унинг тарихига бир назар	
	Имяминова Ш.С.....	267
52	Comparative research of english and Uzbek toponyms	
	Ismatova N.M	270
53	Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida "Happiness" va "Baxt" kontseptining ifodalanishi	
	Jumayeva O.I	275
54	Теория множественного интеллекта и изучение языка	
	Каххорова Ш.Ш	279
55	Tetralogiyaning tadrijiy taraqqiyoti	
	Qo'ilyeva G.N	283
56	Инновационные методы обучения английскому языку для специальных целей	
	Мирходжаева М.И	287
57	Oliy o'quv yurtlarida rusiyzabon talabalarga o'zbek tilini o'qitish muammolari	
	Normatova Sh.U	291
58	Abdulla Oripovning "Haj daftari"she'riy turkumi haqida	
	Fayzullayeva O.X	295
59	Feminist yozuvchilar asarlarida badiiy tasvir vositalarini qo'llanilishi xususida	
	Abdullayeva N	299
60	Yetuk o'zbek adibi Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asari misolida tarixiy inversiya	
	Naimova A.M	303
61	Тилшуносликда матн талқини	
	Қозоқова Н.А	308
62	Обучение Английскому языку с помощью литературы	
	Курбонова Ш.Х	312
63	Frazeologiyani o'rganish va inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologik birliklarning chog'ishtirma tahlili	
	Saidova Z.X	316
64	Ўзбек тилида тарз ифода воситаларининг морфологик, синтактик, лексик ва услубий ифодаланиши	
	Абдуллаев А	320